

**2020**

## **Bank aktivlari va kapitali**

Bank aktivlarini boshqarishda kelgusida strategik yo‘nalishlarni belgilash orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, likvidlilik va daromadlilikni eng maqbul darajasiga erishish hamda bank tavakkalchiliklarini oqilona boshqarish ishlari davom ettiriladi.

2020-yilda bank aktivlarini – **11 195,4** mlrd. so‘mga yetkazish rejalashtirildi hamda jami aktivlar tarkibida daromad keltiruvchi aktivlar salmog‘ini va sifatini oshirish ko‘zda tutildi.

Bank kapitalining yetarli darajada o‘sishini ta’minlash orqali kapitalning monandligiga qo‘yilgan talablarga rioya qilish maqsadida rejalashtirilayotgan yilda olinadigan sof foyda va **200** mlrd. so‘m yangi aksiyalarни emissiya qilish hisobiga bank xususiy kapitalini 2020-yil yakunida **1 617,0** mlrd. so‘mga yetkazish ko‘zda tutildi.

Bankning kapitallashuv darajasini kamida **17,2** foiz miqdorida oshirish rejalashtirildi.

## **Korporativ biznes**

2020-yilda bank tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan korxona va tashkilotlarning istiqbolli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, shuningdek, ushbu korxonalar tomonidan import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltiriladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va uning hajmini oshirish ko‘zda tutilgan.

Mijozlarga qisqa muddatli kreditlar ajratilishini jadallashtirish orqali kredit portfeli tarkibidagi qisqa muddatli kreditlar hajmi va salmog‘ini oshirish, investitsiya kreditlarini moliyalashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga ajratiladigan kreditlar hajmini yanada kengaytirish, kredit qo‘yilmalarini sifatli yo‘naltirishga qaratilgan faol kredit siyosati olib boriladi.

Bankning o‘z mablag‘lari hamda jalb qilingan mablag‘lar hisobiga xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga 2020 yil mobaynida **5 300,0** mlrd. so‘m miqdorida kreditlar ajratilishini ta’minlab, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar qoldig‘ini 2020-yil yakuniga qadar **6 780,0** mlrd. so‘mga yetkazish belgilandi.

Kredit portfeli sifatini yaxshilash, korporativ mijozlarga ajratilgan kreditlarning o‘z vaqtida to‘liq qaytarilishini ta’minlash, shuningdek kredit

mablag'larining daromadliligin oshirish hisobiga 2020-moliyaviy yil yakunlariga ko'ra **892,4** mlrd. so'mdan ortiq daromad olinishi rejalashtirildi.

## Chakana biznes

2020-yilda jismoniy shaxslarga qulay, tezkor hamda jozibador iste'mol kreditlari turlarini taqdim etish orqali moliyaviy yil davomida jami **1100,0** mlrd. so'mlik kreditlar ajratilishini ta'minlab, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ini **1 500,0** mlrd. so'mga yetkazish belgilandi.

2020-yilda jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlar bo'yicha jami **245,7** mlrd. so'm, daromad olinishi ko'zda tutilgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ko'rsatkichlarga erishish uchun bank tomonidan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- Bankning kartalaridan foydalanuvchi mijozlarga turli bank xizmatlarini ko'rsatish va yangi turdag'i onlayn kreditlarni taklif qilib borish;
- iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarini turli xildagi samarali moliyaviy instrumentlardan foydalanish orqali kreditlashni kengaytirish;
- aholining mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mebel, maishiy texnika va boshqa tovarlarni xarid qilishi uchun iste'mol kreditlari ajratishni kengaytirish;
- jahoning ilg'or banklari tajribasini o'rganib, mijozlarning kredit to'lash qobiliyatini zamonaviy skoring-tahlil qilish usullarini ishlab chiqish hamda kreditlar foiz stavkasini tavakkalchilik darajasi va uning muddatidan kelib chiqib belgilash amaliyotini joriy etish.

## Moliyaviy natijalar (daromad, xarajat va foyda)

2020-yilda bank oldiga qo'yilgan ustuvor vazifalarning bajarilishi natijasida asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarning barqaror o'sishi rejalashtirilmoxda.

Jumladan, 2020-yilda bank daromadining o'sish darajasini **1,5 barobarga** ta'minlagan holda, **1 983,7** mlrd. so'mga yetkazish rejalashtirildi. Bu daromadlarning **1 594,1** mlrd. so'mi foizli daromadlar, **389,6** mlrd. so'mi foizsiz daromadlardan tashkil topadi. Foizli daromadlarning asosiy qismi, ya'ni **1 200,3** mlrd. so'mi, ssuda va lizing operatsiyalaridan olinishi ko'zda tutilgan. Foizsiz daromadlarning asosiy qismini esa **291,9** mlrd. so'mi, ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik operatsiyalaridan olingan daromadlar tashkil etadi.

2020-yilda jami **1 733,7** mlrd. soʻmlik bank xarajatlarini amalga oshirish rejalashtirilgan boʻlib, ularning **1 217,3** mlrd. soʻmi foizli xarajatlar, **153,2** mlrd. soʻmi foizsiz xarajatlar va **363,2** mlrd. soʻmi operatsion xarajatlardan iborat boʻladi.

Bankning sof foydasi 2020-yil uchun – **250,0** mlrd. soʻm miqdorida belgilangan.

*mlrd. soʻmda*

Koʼrsatkichlar	2020 yil		
	Reja	Fakt	Bajarilishi
<b>Aktivlar</b>	11 195,4	8 108,2	72%
<b>Majburiyatlar</b>	9 578,4	6 539,6	68%
<b>Xususiy kapital</b>	1 617,0	1 568,5	97%
<b>Jami daromad:</b>	1 983,7	1 480,4	75%
<b>foizli daromad</b>	1 594,1	1 185,9	74%
<b>foizsiz daromad</b>	389,6	294,5	76%
<b>Jami xarajat:</b>	1 733,7	1 310,4	76%
<b>foizli xarajat</b>	1 217,3	819,3	67%
<b>foizsiz xarajat</b>	153,2	170,1	111%
<b>operatsion xarajat</b>	363,2	321,0	88%
<b>Sof foya</b>	250,0	170,0	68%